SANGARDAK SHARSHARASI TARIXI

Bekpo‘latova Mahbuba Asadovna
Termiz arxeologiya muzeyi bosh mutaxassisi

Received: 24.08.2025
Revised: 25.08.2025
Accepted: 26.08.2025
Kalit so‘zlar:
sangardak, “toshlar bilan o‘ralgan joy”, “sharsharamozor”, “sharrakmozor”, sangardakbuloq, shirinbuloq, qorabuloq, siryoybuloq

Annotatsiya
Ushbu maqolada O‘zbekistondagi eng yirik va xushmanzara Sangardak sharsharasi haqida alohida to‘xtalib o‘tamiz, angardak sharsharasi tarixi, etimologiyasi hamda bugungi kunda minglab ziyoratchilar tashrif buyurishmoqda. Shuningdek 2023-yilda qurilib foydalanishga topshirilgan Sangardak sanatoriyasi haqida ham alohida ma‘lumot beriladi.

Kirish. Sangardak so‘zi fors-tojik tilida **“Toshlar bilan o‘ralgan joy”** degan ma’noni anglatadi. Bu nom Sangardak qishlog‘i nomi bilan ham bog‘liq. Sharsharadan 100-200 metr uzoqlikda Sangardak qishlog‘i joylashgan. Mazkur sharshara xalq orasida “Sharsharamozor”, “Sharrakmozor” nomlari bilan ham mashhur bo‘lgan.

Rivoyatlarga ko‘ra, mazkur sharshara XVI-XVII asrda paydo bo‘lgan. Seydi Ali Rais manbasida, XVI asrda keltirilgan. Shu bilan birgalikdaa, mazkur sharshara haqida yana ko‘plab rivoyat va asotirlar mavjud.

Chag‘oniyon o‘lkasi tarixiy toponimlari sirasiga Sanggardak ham kiradi. O‘rta asrlarda Sangardak “Xavarrud” deb ham yuritilgan (Xavar Daryoning tog‘ tizmalaridan boshlanishi bois). Al-Muqaddasiy asarida Sankarda (Sangardak) shahri Chag‘oniyondan bir kunlik masofada joylashgan deb tilga olingan. Ibn Xavqalning ma’lumotlariga ko‘ra, Sankarda, ya’ni Sanggardak X asrda Kesh viloyatiga tobe ikki rustoq Sanggardak nomida bo‘lgan. Birinchisi- Ichki Sangardak, ikkinchisi esa Tashqi Sangardak. Ibn al-Asir malumotlariga ko‘ra, Sanjarda rustoqi ya’ni Sanggardak rustoqi Siyam tog‘larida joylashgan bo‘lib, Muqannaning qal’asi ham o‘sha joyda bo‘lgan[1].

S.Qorayevning ta’kidlashicha, sang+gir+ak- “yumaloqtosh” degan ma’noni bildiradi. Sangar (Sangir) so‘zining “qal’a, istehkom” ma’nosi ham bor[2]. Qadimgi eroniy tillarga xos Sangar-tarixan yasama so‘z; sang-san-gar. Sang-tosh (tog‘) . Qadimgi eroniy tillarda gar<gard-gird-kart-kirt-kird-qal’a, shahar. Sang

[1] Камалиддинов Ш.С.Историческая география Южного Согда и Северного Тохаристана. – Т., "Узбекистан". 1996, – С. 142-143.
[2] Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Т.,O’zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005, – Б. 132

gard-tosh qo‘rg‘on. Sangard-qal’a nomi. Sangardak-Sangard daryosi; Sangard qishlog‘i yonidan oquvchi daryo[3].

V.V.Bartold Sangardak shahrini Sangardak daryoning yuqori havzasida joylashtirgan edi[4]. E.V Rtvladze Sangardak mavzesini hozirgi Budrach yodgorligidan 20 km uzoqlikda joylashgan Yurchida so‘nggi o‘rta asrlarga oid Yurchi begi qal’asi o‘rnida joylashtirgan[5]. Anglashiladiki, deb ta’kidlaydi Sh.S. Kamoliddinov Yurchi bilan Budrach, ya’ni o‘rta asrlar davri Chag‘oniyon shaxri bilan oraliq masofa 16 km ya’ni 3 farsaxni tashkil etadi. Bizningcha,- deb ta’kidlaydi Sh.S.Kamoliddinov Sangardak shahri Sangardak daryosi havzasida Chag‘oniyon viloyati poytaxtidan 6 farsax, ya’ni 30-35 km uzoqlikda joylashgan bo‘lgan[6].

Sangardak shahri o‘rta asrlar Chag‘oniyonning shu nomdagi rustoqlaridan biri bo‘lgan. Sh.S. Kamoliddinovning yozishiga ko‘ra Sangardak markazi Xondiza o‘rniga to‘g‘ri keladi. Xondiza tarkibi qadimgi so‘g‘dcha diz-qal’adan iborat bu qishloq nomi uning qadimiyligiga yana bir ishoradir[7].

Manbalarda (Abusaid Gardiziy va h.k.) Chag‘oniyon shahridan ikki farsax masofada (10-12km atrofida) Qumg‘onan shahri tilga olingan[8]. Qumg‘onon qum> g‘um~xum<xun<xon-xona; dargoh, maskan yoki qum<xumli qal’a, xumdoni bo‘lgan qo‘rg‘on[9]. Qumg‘onon toponimini xumdonli qal’a yoki xumdonli qo‘rg‘on deb izohlash haqiqatga yaqindir. O‘rta asrlarda Chag‘oniyon viloyatining alohida qishloqlari ham hunarmandchilik va umuman xo‘jalikning u yoki bu turlarini ishlab chiqarish bilan ham ajralib turgan. Xususan, al-Muqaddasiyga ko‘ra, Chag‘oniyon manzillaridan biri Dorzangi aholisining aksariyati to‘qimachilik bilan shug‘ullangan va matolar to‘qiganlar[10] yoki paytava, gilam va sholcha tayyorlaganlar va pichoq yasaganlar[11]. Bu ma’lumotlar arxeologiya tadqiqotlari tufayli ham o‘z isbotini topdi. Xususan, hozirda G‘armalitepa deb nomlangan yodgorlik (o‘rta asrlar manbalarida keltirilgan Chag‘oniyonning 16000 qishloqlaridan biri va bu obida o‘rnida Barangi shaharchasi lokalizatsiya qilinadi) dan qazib ochilgan xumdonga ko‘ra, bu

[3] Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. – Т., Ўқитувчи, 1988, – Б. 163.
[4] Бартолд В.В. Туркестан в эпоку монгольсекого нашествия//.Соч., Т.I, – М., Наука, 1963, – С. 124-189.
[5] Аршовская З.А, Ртвеладзе Э.В., Хакимов З.А. Средневековые памятники Сурхандарьи. – Т.,Из-во литературы и искуство имени Г.Гуляма. 1992, – С. 41.
[6] Камолиддинов Ш.С. Историческая география Южного Согда и Севернего Тохаристана. – Т., "Узбекистан"а. 1996, – С. 143.
[7] Камалиддинов Ш.С. Историческая география Южного Согда и Севернего Тохаристана. – Т.,"Узбекистан"а. 1996. – С. 143; Қаранг. Сафаров Ш.,Умаров И., Айрим топонимлар тарихи. – Қарши, Насаф, 2005, – Б. 44.
[8] Ртвладзе Э.В. Сурхондарёнинг ўрта асрлардаги ёдгорликлари. – Б. 64.
[9] Нафасов Т. Ўзбекистон топонимлари изохли луғати. – Т., Ўқитувчи. 1988. – Б. 260.
[10] Камалиддинов Ш.С. Историческая география Южнего Согда и Севернего Тохаристана. – Т., "Узбекистан"а. 1996. – С. 136.
[11] “Ҳудуд ул-олам” дан. Форсийдан О.Бўриев таржимаси. – Б. 177.

yodgorlik o‘rta asrlarda sopol idishlar tayyorlashga ixtisoslashgan bo‘lgan[12]. E.V. Rtveladze Qumg‘onon qishlog‘ini Denovdan shimoli-sharqiy tarafda, undan 4 km uzoqlikda joylashgan Jartoqtepa yodgorligi o‘rnida joylashtirgan[13].

Sangardak sharsharasi Sariosiyo tumani hududida, Denov shahridan 30 km va Termiz shahridan 205 km. uzoqlikda joylashgan. Sariosiyo tumani, o‘zining ichki kontinental subtropik iqlimi bilan mashhur bo‘lib, ushbu iqlim, hududda o‘ziga xos betakror mikroiqlim yaratadi. Bu joylardagi adirlar va tepaliklar yam-yashil o‘simliklar bilan qoplangan. Tuman hududi bo‘ylab Hisor tog‘ tizmasi cho‘zilgan bo‘lib, undan Surxondaryo, To‘palangdaryo, Obizarang va boshqa tog‘ daryolari oqib tushadi. Sangardak sharsharasi tog‘ daryosidan emas, balki g‘orlar ichidagi karst daryolaridan shakllanadi.

Sangardak sharsharasining asosiy suv manbai qoyatoshlar orasidagi ko‘l hisoblanadi. Ko‘l buloq suvlari asnosida to‘yinadi. Bu yerdagi asosiy buloqlar **Sangardakbuloq, Shirinbuloq, Qorabuloq, Siryoybuloq** kabilardir.

Sangardak sharsharasi tik qoyadan favvora shaklida toshlar yuzasi bo‘ylab pastga oqib tushadi va betakror manzara namoyish etadi. Suv yil bo‘yi tiniq holatda bo‘ladi. Balandlikdan oqib tushuvchi suvning salqin shabadasi va go‘zal tabiati insonlarni o‘ziga jalb qiladi.

Sangardakka odatda yoz oylarida borish tavsiya etiladi. Sababi ayni shu vaqtda sharshara suvi ko‘payadi. Qish oylarida esa mamlakatdagi sovuq ob-havo sababli sharshara qisman muzlaydi. Ammo 2023-yil qishdagi anomal sovuq sababli sharshara butkul muzlab qolgan edi.

Sangardak — O‘zbekiston hududida joylashgan eng baland sharsharalardan biri hisoblanadi. Sayyohlar, asosan, sharsharaga may-sentabr oylarida tashrif buyuradilar. Sharshara atrofi temir panjaralar bilan o‘ralgan, sayyohlar havfsizligi ta’minlangan. Temir zinalar sharsharani yaqindan ko‘rish imkoniyatini yaratadi. Zinapoyalar yuqoriga chiqadigan so‘qmoqqa qurilgan bo‘lib, kiraverishga temir darvoza o‘rnatilgan. Shuningdek, temir supalar, har 10-15 metrda keng ayvonchalar qurilgan bo‘lib, bu sayyohlar sharsharani tomosha qilishlari uchun yana bir qulaylik sifatida barpo etilgan. Hisor tog‘ tizmasi etagida joy olgan. Sharshara Xondizadan atigi 30 km uzoqlikda joylashgan. Dengiz sathidan **3000 metr** balandlikdan otilib chiqadigan suv, **150 metrlik** balandlikdan oqib tushadi. Eng baland joyi 180 metrga qadar yetadi. Sangardak sharsharasining yuqori qismida Xo‘jailg‘or ziyoratgohi, yon tomonida Sharsharamozor ziyoratgohi joylashgan. Shu sababli yil davomida bu hududda turistlar tashrifi doimiy kuzatiladi.

Sangardak sanatoriyasi. Prezidentimiz 2019 yil 17-18 oktyabr kunlari Surxondaryo viloyatiga tashrifi chog‘ida Sariosiyo tumanidagi dunyoga mashhur

[12] Исхаков М.Х ,Маликов О.С. Археологические памятники в округе Дальверзинтепе// Пугаченкова Г.А., Рдвладзе Э.В. и др.Дальверзинтепе- кушанекий город на тоге "Узбекистан"а. – Т., Фан. 1978, – С. 223-227.
[13] Рдвеладзе Э.В. Сурхондариёнинг ўрта асрлардаги ёдгорликлари. – Б. 64.

"Sangardak" sharsharasiga yaqin hududda barcha qulayliklarga ega zamonaviy sanatoriya barpo etish yuzasidan tegishli topshiriqlar bergan edi. Shunga muvofiq Kasaba uyushmalari federatsiyasi purviqor tog‘lar bag‘rida 200 o‘rinli **“Sangardak”** sanatoriyasi qurilishiga ta’mal toshini qo‘ydi. Qisqa vaqtda qiya relefli maydonlarda murakkab sharoitdagi qurilish ishlari amalga oshirildi. Zamonaviy va milliy me’moriy yechimlar asosida yetti qavatli sog‘lomlashtirish maskani qad rostladi. Uning birinchi qavatida qabul va boshqaruv bo‘limi, ikkinchi qavatdan oltinchi qavatgacha barcha qulaylikka ega yotoqxonalar, yettinchi qavatda lyuks-appartament xonalari joylashgan. Yangi sanatoriya tog‘ iqlimi, tabiatining shifobaxsh xususiyatiga ko‘ra, yuqori nafas yo‘llari, allergiya, astma, asab, yurak qon-tomir, urologik, ginekologik, harakat-tayanch tizimi kasalliklarini davolashga ixtisoslashgan. 3,16 gektar maydonda joylashgan sanatoriyaga 4 kilometr masofadagi tog‘lar qo‘ynidan maxsus quvurlar orqali toza ichimlik suvi tortib kelindi. O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi dam olish maskanini tashxislash va davolash, salomatlikni tiklash va turli kasalliklarning oldini olishga xizmat qiluvchi eng so‘nggi rusumdagi zamonaviy tibbiy asbob-uskunalar, shuningdek, eng zamonaviy, yuqori sifatli qattiq va yumshoq mebellar bilan jihozladi. Dam oluvchilar uchun bu yerda fizioterapiya va suv bilan davolash bo‘limlari, shifobaxsh tuz g‘ori, laboratoriya, jismoniy tarbiya, balchiq va parafin bilan davolash, gadroaeroionizatsiya xonalari, yopiq suzish havzasi, turk hammomi xizmatlaridan foydalanishi mumkin. Kutubxona, madaniyat saroyi, tennis xonalari, mazali va darmondorilarga boy taomlar tayyorlanadigan oshxona, bolalar o‘yingohi ham bunyod etilgan.





1-2-rasm. Sangardak sharsharasi kirish qismi



3-rasm. Muzlagan Sangardak sharsharasi.



4-rasm. Sangardak sanatoriyasi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Камалиддинов Ш.С.Историческая география Южного Согда и Северного Тохаристана. – Т., "Узбекистан". 1996, – С. 142-143.
2. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Т.,O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2005, – Б. 132
3. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. – Т., Ўқитувчи, 1988, – Б. 163.
4. Бартолд В.В. Туркестан в эпоку монгольсекого нашествия//.Соч., Т.I, – М., Наука, 1963, – С. 124-189.
5. Аршовская З.А, Ртвеладзе Э.В., Хакимов З.А. Средневековые памятники Сурхандарьи. – Т.,Из-во литературы и искуство имени Г.Гуляма. 1992, – С. 41.
6. Камолиддинов Ш.С. Историческая география Южного Согда и Севернего Тохаристана. – Т., "Узбекистан"а. 1996, – С. 143.
7. Камалиддинов Ш.С. Историческая география Южного Согда и Севернего Тохаристана. – Т.,"Узбекистан"а. 1996. – С. 143; Қаранг. Сафаров Ш.,Умаров И., Айрим топонимлар тарихи. – Қарши, Насаф, 2005, – Б. 44.
8. Ртвладзе Э.В. Сурхондарёнинг ўрта асрлардаги ёдгорликлари. – Б. 64.
9. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимлари изохли луғати. – Т., Ўқитувчи. 1988. – Б. 260.
10. Камалиддинов Ш.С. Историческая география Южнего Согда и Севернего Тохаристана. – Т., "Узбекистан"а. 1996. – С. 136.
11. "Ҳудуд ул-олам" дан. Форсийдан О.Бўриев таржимаси. – Б. 177.
12. Исхаков М.Х ,Маликов О.С. Археологические памятники в округе Дальверзинтепе// Пугаченкова Г.А., Рдвладзе Э.В. и др.Дальверзинтепе-кушанекий город на тоге "Узбекистан"а. – Т., Фан. 1978, – С. 223-227.
13. Рдвеладзе Э.В. Сурхондариёнинг ўрта асрлардаги ёдгорликлари. – Б. 64.
14. **https://uz.wikipedia.org/wiki/Sangardak_sharsharasi**
15. **https://uzbekistan.travel/uz/o/sangardak-sharsharasi/**
16. Fayzraxmanova Zarina Ildarovna. O'zMU mustaqil tadqiqotchisi. **shayboniylar davriga oid manbalar tahlili**. (https://in-academy.uz/index.php/ejar/article/download/35739/22839/36993)